



**TIBBIY XIZMAT KO'RSATISH MUNOSABATLARINING
XALQARO-HUQUQIY MANBALARI**

Abdullahayev Jamshid Djamilovich,

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi,
“Adliya a'lchisi”, Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

E-mail: jamshidb003fb@gmail.com.

Annotatsiya. Maqolada tibbiy xizmat ko'rsatish munosabatlarining barcha xalqaro-huquqiy manbalari tahlil qilingan. O'z navbatida xalqaro huquqda mavjud buyurtmachi – bemor hamda tibbiy tashkilot o'rtaqidagi munosabatlar, tibbiy xizmat va tibbiy yordam masalalari, O'zbekiston Respublikasida mavjud tibbiy xizmat ko'rsatish shartnomaviy munosabatlarining bugungi kundagi joriy holati o'rganlgan. Bundan tashqari tibbiy xizmat va tibbiy yordam ko'rsatish bilan bog'liq tibbiy amaliyotning O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi hamda Jinoyat kodeksi tartibididagi moddalari, shuningdek sohaga oid O'zbekiston Respublikasidagi sud amaliyotlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Globallashuv, OIV/OITS, COVID-19 pandemiyasi, tibbiy xizmat ko'rsatish shartnomalari, xalqaro huquqdagi inson huquqlari va tibbiyot huquqi, salomatlik huquqi, “Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida Xalqaro Pakt”, yuqumli, endemik, kasbiy va boshqa kasalliklar, sanoatda mehnat gigiyenasi, individual xususiyat, Jinoyat kodeksi, O'zbekiston Respublikasi sud amaliyotlari

Jahonda globallashuv jarayonida tibbiy xizmat ko'rsatishdan foydalanishga bo'lgan huquq ko'pgina xalqaro hujjatlarda, jumladan BMTning Barqaror



rivojlanish maqsadlari, Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti Nizomi va direktivalari, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar bo‘yicha xalqaro Pakt va boshqa xalqaro me’yoriy hujjatlarda mustahkamlangan. Xususan hamma hujjatlarda sifatli tibbiy xizmatdan foydalanish har bir insonning asosiy ajralmas ijtimoiy huquqlaridan biri ekanligi qayd qilingan.

Shuni keltirish kerakki, “2021 yilda dunyo bo‘ylab bolalar (0-14 yosh) OIV/OITS bilan yashovchi barcha odamlarning 4 foizini tashkil etdi, bu esa ushbu kasallik bilan bog‘liq barcha o‘limlarning 15 foizini tashkil qiladi. 2015 yildan 2021 yilgacha sil kasalligidan vafot etganlar sonini kamayishi atigi 5,9 foizini tashkil etdi. COVID-19 pandemiyasi 14,9 million qo‘sishimcha o‘limga sabab bo‘ldi va 2020 – 2021 yillarda 336,8 millionta o‘limga olib keldi”¹. Yuqoridagi raqamlar albatta taraqqiyotning rivojlanishi bilan bir maromda kasallik turlarining ham rivojlanishi tendensiyasini yaqqol namoyon qiladi. Ilm-fan qanchalik taraqqiy etmasin lekin hali ham insoniyat tuzatishi mumkin bo‘lmagan kasalliklarning bir qancha turlari mavjuddir.

Butun dunyo afkor ommasidagi mazkur vaziyat butun dunyo hamjamiyatiga nafaqat jahon sog‘liqni saqlash tizimlarining nomukammalligini, tibbiy xizmat ko‘rsatish shartnomalari institutining samarali ishlamayotganligi, balki chuqr huquqiy bo‘sliqlar mavjudligi va zudlik bilan hal etilishini talab qiluvchi masalalarni tadqiq etishda tibbiy xizmat ko‘rsatishdan foydalanishga bo‘lgan huquq kategoriyasini chuqr o‘rganish va tibbiy xizmatda xalqaro hamkorlikning xalqaro-huquqiy asoslarini yanada kengaytirish va takomillashtirishni dolzarbligini yana bir marta isbotlaydi.

Dunyoda xalqaro va milliy tibbiyot huquqini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy munozaralar, uning asosiy va konseptual asosi bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarning

¹ World health statistics 2023: monitoring health for the SDGs, Sustainable Development Goals. © World Health Organization 2023. <https://www.who.int/publications/i/item/9789240074323>



amalga oshirilishi jadal kechmoqda. Chunki, asl haqiqat shuki, inson hamisha sifatli ta’lim bir birgalikda o‘z sog‘lig‘ini saqlashga tabiiy ehtiyoj sezgan.

Tibbiy xizmat ko‘rsatish shartnomalari yo‘nalishida zamonaviy qiyinchiliklar va tahdidlar sharoitida sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish, tibbiy xizmat ko‘rsatish shartnomalari tizimida taraflarning huquq va majburiyatlarini masalasini aniqlashtirish, aholining salomatligi bilan bog‘liq huquq normalarining xususiyatlarini aniqlash, institusionalizasiya, kodifikasiya, tibbiy tashkilot hamda buyurtmachi – bemorlarning huquq va majburiyatları sohasida xalqaro normalarni ishlab chiqish kabi ustivor masalalar katta ahamiyat kasb etmoqda.

Ayniqsa sobiq Sovet davlati tarkibida mustaqil suveren davlatlarning tashkil topishi tufayli bozor munosabatlarining faollashuvi fonida tibbiy xizmat ko‘rsatishda xususiy sektorning hal qiluvchi rolni bajara boshlashi an’anaviy tibbiy xizmat ko‘rsatish qoidalarini eskirganini yaqqol ko‘rsatdi. Tibbiy xizmat ko‘rsatishda yuzaga kelayotgan munosabatlar huquqiy tartibga solinishini talab qiladi.

Tibbiy xizmat ko‘rsatish shartnomalarini takomillashtirish uchun sohada mavjud xalqaro normalarini implementasiya qilish orqali me‘yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Respublikamizda so‘ngi yillarda tibbiy xizmat ko‘rsatish sohasi tizimini isloh qilish masalasida huquqiy baza bosqichma-bosqich yaratilmoqda. Davlat siyosatining ijtimoiy yo‘nalishlari doirasida salomatlikni saqlashga oid normalar qabul qilinmoqda yoki ma’nан eskirganlariga tuzatish va o‘zgartirishlar kiritilmoqda. Tibbiy xizmat ko‘rsatish sohasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida xalqaro huquqdagi inson huquqlari va tibbiyot huquqi sohalarini rivojlantirish, sog‘liqni saqlash, tibbiy xizmatning sifati, tibbiy tashkilot hamda buyurtmachi – bemorlarning huquqlarini rivojlantirish dolzarb ahamiyatga ega. Masalaning yana bir qismi tibbiy xizmat ko‘rsatish sohasida huquq



ustuvorligini ta‘minlash, sog‘liqni saqlash sohasidagi qonunchilikni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, sog‘liqni saqlash tizimi faoliyatini takomillashtirish, sifatli tibbiy xizmatdan foydalanishga bo‘lgan huquqqa oid normalarni o‘rganish va amaliyotga joriy etish hamda inson ishtirokida davolashning yangi biomedisina usullaridan foydalanishni huquqiy tartibga solish, shuningdek, inson salomatligi uchun tibbiy xizmat ko‘rsatishda sun’iy intelektdan foydanish chegarasi va boshqalar xususida tibbiyot huquqi, tibbiy xizmat ko‘rsatish shartnomalari institutti sohasini o‘rganish muhimlik kasb etadi.

Shu maqsadda bir qancha normalar qabul qilingan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”²gi, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF–158-son “O‘zbekiston – 2030” Strategiyasi to‘g‘risida”³gi, 2021-yil 5-maydagi PF–6221-son “Sog‘liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish va tibbiyot xodimlarining salohiyatini oshirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish to‘g‘risida”⁴gi, 2018-yil 7-dekabrdagi PF–5590-son “O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha kompleks choratadbirlar to‘g‘risida”⁵gi Farmonlari, “2019-2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish konsepsiysi”⁶, 2023-yil 1-maydagi PQ–140-son “Sog‘liqni saqlash tizimini raqamlashtirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”⁷gi qarori va boshqalar qabul qilingan.

Tibbiy xixmat ko‘rsatish xalqaro huquqdagi inson huquqlarida sog‘liqqa bo‘lgan huquqning kontseptual va institutsional asoslari sog‘liqqa bo‘lgan huquqni shakllantirish xususiyatlari orasida muhim o‘rin tutadi. Tibbiy xizmat ko‘rsatish

² <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

³ https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/uzbekiston_-_2030_strategiyasi_asosiy_goyalar

⁴ <https://yuz.uz/uz/news/tibbiyotda-kadrlar-taqchilligi-muammosi-echiladi>

⁵ <https://lex.uz/docs/-4096197?ONDATE2=24.02.2022&action=compare>

⁶ <https://president.uz/oz/lists/view/3326>

⁷ https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/sogliqni_saqlash_tizimini_raqamlashtirishga_-_505_mln_evro



jarayonida inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq tizimida sog'liqqa bo'lgan huquq, tibbiy xizmat olish huquqini mustaqil zamonaviy kategoriyasidir. Tibbiy xizmat ko'rsatish jarayonida sog'liqqa bo'lgan huquqning huquqiy mohiyati yotadi. Bundan tashqari tibbiy xizmat ko'rsatishning boshqa xizmat ko'rsatish usullaridan farqli tomonlari va xususiyatlarini hisobga olgan holda, tibbiyat huquqi sohasining ham milliy, ham xalqaro miqyosda shakllanishi bilan bevosita bog'liqligi va uning institutsional asosi bo'lib, bu turdag'i xizmatning yakunida inson salomatligini saqlashga qaratilgan yoki ta'minlash nazarda tutiladi.

Tibbiy xizmatdan foydalanish bir paytning o'zida ham ijtimoiy va shaxsiy huquqning chegarasi oralig'idagi insonning huquqlari konsepsiyasidan kelib chiqadi. Biroq o'zining ayrim jihatlari bilan fuqarolik huquqi bilan tutashadi. Inson huquqlariga nisbatan tibbiy xizmat ko'rsatish nazariy yondashuvning huquqiy asoslari deyarli barcha davlatlarda ishlab chiqilgan. Tibbiy xizmat ko'rsatishda sog'liqni saqlashga bo'lgan huquq bo'yicha umumiy nazariy va amaliy qarashlar doirasida mutlaqo yangi manzara, yangi yondashuvlar, xizmat ko'rsatish bozorida xususiy tibbiy tashkilotlarning salmog'ining ortishi kabi faktorlar tufayli xalqaro huquqda ham tibbiy xizmat ko'rsatishning nizoli tomonlarini hal qilish muhim.

Tibbiy xizmat ko'rsatish jarayonida sog'liqqa bo'lgan huquqning huquq tizimidagi o'rnini aniqlashga harakat qilmoqda. Tibbiy xizmatning asosiy jihatlaridan biri salomatlik huquqi bo'lib, u xalqaro tibbiyat huquqning asosiy instituti sifatida taqdim etilgan.

Tibbiy xizmatning asl maqsadi bo'lgan - salomatlik huquqi insonning ijtimoiy huquqlari toifasiga kiritiladi. Bu masala tadqiqotlarda xilma-xil ta'riflanadi. Tadqiqotchi N.E.G'afurova tomonidan shunday fikr yuritiladi: "Tadqiqotlar natijasida ilk bora salomatlik huquqi insonning somatik huquqlari toifasiga kiritish



fikri ilgari surilgan va muallifning ta‘rifi berilgan”⁸. Uning fikrlarida qo‘shilgan holda bunga qo‘shimcha tarzda “Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risida Xalqaro Pakt”ning ayrim moddalaridan namuna keltiramiz. “12-modda. 1. Mazkur Paktda ishtirok etuvchi davlatlar har bir kishining jismoniy va ruhiy salomatlik jihatdan oliy darajaga yetishi huquqini e’tirof etadi.

2. Ushbu Paktda ishtirok etuvchi davlatlar ko‘rishi kerak bo‘lgan choralar quyidagi ishlar uchun zarur tadbirlarni o‘z ichiga oladi:

- a) o‘lik go‘daklar tug‘ilishini va bolalar o‘limini qisqartirish hamda bolalarning sog‘lom rivojlanishini ta’minlash;
- b) tashqi muhitning hamma jihatlarini va sanoatda mehnat gigiyenasini yaxshilash;
- s) yuqumli, endemik, kasbiy va boshqa kasalliklar oldini olish, davolash hamda ularga qarshi kurashish;
- b) kasal bo‘lgan hollarda hammaga tibbiy yordam ko‘rsatish va tibbiy parvarishni ta’minlaydigan sharoit yaratish”⁹. Demak, xalqaro miqyosda qabul qilingan hujjatlarda ham tibbiy xizmatdan foydalanish qayd qilingan.

Tibbiy xizmat ko‘rsatishning xalqaro yoki milliy huquq tizimi o‘rganilishida masalaning eng nozik tomoni bemor hisoblanadi. Bemor – sog‘lig‘ini saqlashni ko‘zda tutib, qonun hujjatlari doirasida tibbiy xizmat yoki yordam olish, tibbiyot hamda farmatsevtika xizmat(lar)ining qonunda ta’qilanganmagan barcha turlaridan foydalanish uchun tibbiy muassasa yoki yakka tartibdagi tibbiyot xodimi bilan munosabat(lar)ga kirishuvchi shaxsdir.

⁸ N.E.G‘afurova. O‘zbekiston Respublikasida sog‘liqqa bo‘lgan huquqni ta‘minlashning xalqaro-huquqiy asoslari. 12.00.10 – Xalqaro huquq yuridik fanlar doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent – 2024 B.15.

⁹ Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risida Xalqaro Pakt. 16.12.1966. <https://lex.uz/docs/-2686000>



Demak, bemorlarning huquqlari qat'iy individual xususiyatga ega hisoblanadi. Ayni paytda bemor huquqlarini himoya qilish doktrinasi allaqachon shakllangan. Biroq unda asosiy masala bemor huquqlarini jinoyat huquqi bilan huquqiy tartibga solishga qaratilgan. Biroq tibbiy xizmat ko'rsatish faqat jinoyat huquqi bilan emas, balki asosiy munosabatlar qamrovi fuqarolik huqiqi doirasida hal qilinadi. Bemorlar huquqlarini himoya qilish, sohaga oid huquqiy munosabatlarni tartibga solish sohasidagi mavjud muammolarni tanqidiy tahlil qilish va aniqlash maqsadida bemorlar huquqlarini himoya qilish doirasidagi O'zbekiston Respublikasi sud amaliyotlari o'rganilib, tahlil qilindi. O'rganish davomida O'zbekiston Respublikasida bemorlar huquqlarining buzilishi bilan bog'liq o'ttizdan ortiq jinoyat ishlari bo'yicha sud ishlari o'rganilib, eng ko'p murojaatlar O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining quyidagi moddalari doirasida ish qo'zg'atilganligi ma'lum bo'ldi:

O'zR JK: 116-modda – Kasb yuzasidan o'z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik;

O'zR JK: 117-modda – Xavf ostida qoldirish;

O'zR JK: 167-modda – O'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-toroj qilish;

O'zR JK: 168-modda – Firibgarlik;

O'zR JK: 207-modda – Mansabga sovuqqonlik bilan qarash;

O'zR JK: 209-modda – Mansab soxtakorligi;

O'zR JK: 210-modda – Pora olish va boshqalar. Umumiyl xulosa sifatida shuni aytish lozimki, mazkur ish hujjatlari bilan tanishish yakunida asosan kasb yuzasidan o'z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik holatlari umimiy "delo"larning taxminan 90 foiziga to'g'ri keladi. Ayniqsa, tibbiy xizmat



ko‘rsatishning tana a’zolini kichik yoki katta holatga keltirish, yuz va bo‘yin qismi bilan aloqador tibbiy amaliyotlarning yakunida asosan murojaat qiluvchi yohud jabrlanuvchiga, uning bu munosabatlardan yuzasidan da’vogar sifatida fuqarolik sudiga murojaat qilishi mumkinligi aytildi. Tibbiy xizmat ko‘rsatish munosabatlarining xalqaro-huquqiy manbalari o‘z navbatida shaxsning bunday huquqi mavjudligini e’tirof etadi va tan oladi. Sudga murojaat qilgan bemor asosan o‘ziga yetkazilgan zararni huquqiy asoslantirishi kerak bo‘ladi. Asosan tomonlar barcha masala(lar)ni og‘zaki kelishuv hamda tibbiy amaliyotga rozilik bilan boshlashgani, ularning o‘rtasida xech qanday yozma kelishuv shartnomasi mavjud emasligi tufayli aksariyat hollarda sud tartibida ularning masalasiga huquqiy yechim berish mushkul ishga aylanadi.

Masalaning ikkinchi tomoni tibbiy tashkilot tomonidan bemorga yetkazilgan moddiy va ma’naviy zarar bilan chambarchas bog‘liqdir. Masalan, kosmetologiya sohasida asosiy amaliyotlarda inson sog‘lig‘iga aniq zarar yetmagan holatda inson tanasining ma’lum bir a’zosi bir umr xunuk bir shakl yoki holatga kelishi ham mumkin. Kundalik amaliyotda bu kabi natijasiz va samarasiz tugagan tibbiy xizmatlar talaygina hisoblanadi.

Tibbiy xizmat ko‘rsatish munosabatlarining xalqaro-huquqiy manbalari masalasida yakuniy xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, xalqaro huquq aynan bemor huquqlarini himoya qilishning samarali mexanizmlari vositasida milliy huquqning mos sohasida tarkibiy o‘zgarishlar qilinmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. World health statistics 2023: monitoring health for the SDGs, Sustainable Development Goals. © World Health

Organization 2023. <https://www.who.int/publications/i/item/9789240074323>



2. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
3. https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/uzbekiston_-_2030_strategiyasi_asosiy_goyalalar
4. <https://yuz.uz/uz/news/tibbiyotda-kadrlar-taqchilligi-muammosi-echiladi>
5. <https://lex.uz/docs/-4096197?ONDATE2=24.02.2022&action=compare>
6. <https://president.uz/oz/lists/view/3326>
7. https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/sogliqni_saqlash_tizimini_raqamlashtirishga_-_505_mln_evro
8. N.E.G'afurova. O'zbekiston Respublikasida sog'liqqa bo'lgan huquqni ta'minlashning xalqaro-huquqiy asoslari. 12.00.10 – Xalqaro huquq yuridik fanlar doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent – 2024 B.15.
9. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida Xalqaro Pakt. 16.12.1966. <https://lex.uz/docs/-2686000>